

«Утверждаю»

Административный директор  
ООО «УМС»

Камалидинов М.Р.



«12» 02 2026 г.

## TEXNIK TOPSHIRIQ

**"УМС" МЧЈning quyidagi manzildagi Ma'muriy binosi uchun oyna paketlarini xarid qilish uchun:**

**Toshkent shahri, A.Temur shoh ko'chasi, 24-uy.**

Toshkent shahri  
2026-yil

**1. Xizmat, tovar predmeti: Deraza oyna paketlarini tayyorlash va o'rnatish ishlarini bajarish.**

**2. Ishni bajarish joyi:** Toshkent shahri, A.Temur shoh ko'chasi, 24-uy.

**3. Ishlarni bajarish muddati:** 10 ish kuni

**4. Bajariladigan ishlarining kafolat muddatiga qo'yiladigan talablar:** bajariladigan ishlarining kafolat muddati Buyurtmachi tomonidan bajarilgan ishlarni qabul qilish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan sanadan boshlab, lozim darajada foydalanish sharti bilan, kamida 12 (o'n ikki) oyni tashkil etadi.

**5. Ishlar tarkibi va hajmiga qo'yiladigan talablar:**

- deraza oyna paketlarining aniq o'lchamlari;

- o'lchash, tayyorlash, yetkazib berish va o'rnatish yetkazib beruvchi hisobidan amalga oshiriladi.

**6. Pudratchi tomonidan foydalaniladigan sifat, texnik xususiyatlar va materiallarga qo'yiladigan talablar:**

Ishlarni bajarish uchun yetkazib beriladigan barcha materiallar va uskunalari tegishli sertifikatlarga, texnik pasportlarga, shuningdek, ularning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarga ega bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq majburiy sertifikatlanishi lozim bo'lgan materiallar uchun muvofiqlik sertifikatlari, sifat pasportlari va shu kabilarning nusxalari Buyurtmachiga tegishli materiallar va uskunalaridan foydalangan holda bajariladigan ishlarni bajarish boshlangunga qadar taqdim etilishi kerak. Ishlatiladigan materiallarning davlat standartlari va texnik shartlarga muvofiqligi uchun pudratchi javobgar hisoblanadi.

Qurilish chiqindilari belgilangan tartibda Pudratchi tomonidan utilizatsiya qilinadi.

**7. Bajariladigan ishlarining xavfsizligiga qo'yiladigan talablar va ekologik talablar:**

- ishlarning bexatar bajarilishi uchun Pudratchi javob beradi;

Pudratchi ishlarni bajarishda yong'in xavfsizligi talablariga hamda Buyurtmachining ichki va mehnat tartibi qoidalariga rioya etishi shart.

**8. Shisha paketlarning xususiyatlari:**


<b>Tovar ko'rsatkichining nomi</b>	<b>Buyurtmachi tomonidan belgilangan ko'rsatkichning talab qilinadigan qiymati</b>
shishapaket	Bir kamerali 15m <sup>2</sup>
shishapaket (rang)	Oq (Buyurtmachi bilan kelishish)
zichlovchi rezina	Havo kamerasi 84 p/m bo'lgan zichlovchi rezina

Mahsulot talabi:

1. Tovarlarni yetkazib berishda sifatni buyurtmachi bilan oldindan kelishish
2. Sanab o'tilgan tovarga shartnoma tuzilgandan keyin 12 oylik kafolat.
3. Tovarni yetkazib berish joyi: Toshkent shahri, A.Temur shoh ko'chasi, 24

**Ishlab chiqilgan:**

AD BFQvaKM boshlig'i




R.B. Sidikov

AD BFQvaKM TNG rahbari



E.R. Abdiganiyev

AD BFQvaKM TNG katta mutaxassis



N.N. Polatov